

UDK: 811.411.21:374

ORCID: 0000-0002-0666-0128

**ARAB TILIDA ENANTIOSEMIYA VA ANTONIMIYA: ZID
MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI**

**ЭНАНТИОСЕМИЯ И АНТОНИМИЯ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ:
СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С
ПРОТИВОПОЛОЖНЫМ ЗНАЧЕНИЕМ**

**ENANTIOSEMY AND ANTONYMY IN THE ARABIC LANGUAGE:
A SEMANTIC ANALYSIS OF LEXICAL UNITS WITH OPPOSITE
MEANINGS**

Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin o'g'li

Oriental universiteti, Tillar-1 kafedrası dotsenti v.b.

e-mail: sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com

Tel.: +998935342735

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilshunosligidagi ikki muhim semantik hodisa — enantiosemiya va antonimiya o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Har ikkala hodisa qarama-qarshi ma'no bilan bog'liq bo'lsa-da, ularning lingvistik tabiati va semantik tuzilishi bir-biridan farq qiladi. Enantiosemiya bitta leksik birlikning o'z ichida qarama-qarshi ma'nolarni ifodalashi bilan xarakterlansa, antonimiya ikki mustaqil leksik birlik o'rtasidagi qarama-qarshilikni bildiradi. Tadqiqot davomida klassik arab tilshunosligi manbalari hamda zamonaviy semantik tadqiqotlar qiyosiy o'rganildi. Semantik maydon nazariyasi asosida enantiosemiya va antonimiya hodisalarining lingvistik xususiyatlari aniqlanib, ularning o'xshash va farqli jihatlari misollar orqali yoritildi. Tadqiqot natijalari

arab tilidagi zid ma'noli birliklarni talqin qilishda terminologik aniqlikni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: enantiosemiya, antonimiya, arab tili, leksik semantika, semantik maydon, qarama-qarshilik, polisemiya.

Аннотация. В данной статье анализируются различия между двумя важными семантическими явлениями арабского языкознания — энантиосемией и антонимией. Несмотря на то, что оба явления связаны с противоположностью значений, их лингвистическая природа и семантическая структура различны. Энантиосемия характеризуется тем, что одно и то же слово может выражать противоположные значения, тогда как антонимия отражает противопоставление между двумя самостоятельными лексическими единицами. В исследовании сопоставляются данные классической арабской лингвистики и современные семантические теории. На основе теории семантического поля выявлены особенности функционирования этих явлений и показаны их сходства и различия на примерах. Результаты исследования подчеркивают необходимость терминологической точности при анализе лексических единиц с противоположным значением в арабском языке.

Ключевые слова: энантиосемия, антонимия, арабский язык, лексическая семантика, семантическое поле, противоположность значений.

Abstract. This article examines the differences between two important semantic phenomena in Arabic linguistics: enantiosemy and antonymy. Although both concepts are associated with semantic opposition, their linguistic nature and structural characteristics differ significantly. Enantiosemy refers to a situation in which a single lexical unit expresses two opposite meanings, whereas antonymy describes a semantic opposition between two independent lexical units. The study comparatively analyzes classical Arabic linguistic sources and modern semantic theories. Using the framework of semantic field theory, the linguistic

characteristics of enantiosemy and antonymy are explored, and their similarities and differences are illustrated through examples. The findings emphasize the importance of terminological precision when analyzing lexical units with opposite meanings in Arabic.

Keywords: enantiosemy, antonymy, Arabic language, lexical semantics, semantic field, semantic opposition.

KIRISH. Til inson tafakkurining semantik tizimini aks ettiruvchi murakkab belgilar tizimidir. Har bir tilning leksik tarkibi faqat alohida soʻzlar yigʻindisi emas, balki oʻzaro maʼno munosabatlari bilan bogʻlangan semantik tuzilma hisoblanadi. Sinonimiya, polisemiya, giponimiya va antonimiya kabi hodisalar ana shu semantik tizimning asosiy qatlamlarini tashkil etadi (Lyons, 1995: 60–63).

Arab tilshunosligida qarama-qarshi ma'no bilan bog'liq hodisalar ichida ayniqsa ikki tushuncha muhim hisoblanadi: enantiosemiya va antonimiya. Bu ikki termin ko'pincha bir-biriga yaqin ma'noda ishlatiladi, chunki ularning har ikkisi ham zid ma'no bilan bog'liq. Biroq lingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, ularning semantik tabiati va struktur xususiyatlari bir xil emas.

Enantiosemiya hodisasida bitta leksik birlik qarama-qarshi ma'nolarni ifodalashi mumkin. Bunday holatda zidlik bir soʻzning ichki semantik tuzilishida yuzaga keladi. Antonimiyada esa qarama-qarshilik ikki mustaqil leksik birlik oʻrtasida shakllanadi. Masalan, arab tilida — **يمين — شمال, صعود — هبوط, قوي** — oʻrtasida shakllanadi. Masalan, arab tilida — **يمين — شمال, صعود — هبوط, قوي** kabi juftliklar antonimik munosabatni bildiradi.

Arab tilshunosligining klassik manbalarida enantiosemiya hodisasi alohida e'tibor bilan o'rganilgan. Ayniqsa lug'atshunoslar ayrim so'zlarning qarama-qarshi ma'nolarni ifodalash xususiyatini qayd etganlar. Zamonaviy semantik tadqiqotlarda esa antonimiya hodisasi kengroq nazariy asosda o'rganilib, uning semantik maydonlarni shakllantirishdagi roli ko'rsatib berilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi arab tilidagi enantiosemiya va antonimiya hodisalarini qiyosiy tahlil qilish, ularning semantik xususiyatlarini aniqlash hamda

semantik maydon nazariyasi doirasida ularning lingvistik o'rnini belgilashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Arab tilshunosligida enantiosemiya masalasi qadimdan tilshunoslar e'tiborini tortgan. Ibn Fāris o'zining "Maqāyīs al-lugha" asarida ayrim so'zlar tarixiy rivojlanish jarayonida qarama-qarshi ma'nolarni ifodalashi mumkinligini qayd etadi (Ibn Fāris, n.d.: 3/372). Ibn Manzur ham "Lisān al-'Arab" lug'atida ayrim birliklarning ikki qarama-qarshi ma'noda ishlatilishini ko'rsatadi va bunday hodisalarni kontekst orqali talqin qilish zarurligini ta'kidlaydi (Ibn Manzur, n.d.: 11/444).

Abu at-Tayyib al-Lug'aviy "Al-Aḍḍād" asarida arab tilida qarama-qarshi ma'nolarni ifodalovchi so'zlarni jamlab, ularni alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganadi. Bu asarda bir qator leksik birliklarning ikki xil ma'noda ishlatilishi misollar bilan ko'rsatilgan.

Zamonaviy tilshunoslikda esa antonimiya hodisasi kengroq nazariy asosda tahlil qilinadi. John Lyons antonimiyani til tizimidagi asosiy semantik munosabatlardan biri deb hisoblaydi va u orqali tushunchalar o'rtasidagi qarama-qarshilik ifodalanishini ta'kidlaydi (Lyons, 1995: 270–276). Palmer antonimiyani semantik tizimni tartibga soluvchi muhim vosita sifatida baholaydi (Palmer, 1981: 85–89). Cruse esa antonimiyaning gradatsiyali, komplementar va relatsion turlarini farqlab ko'rsatadi (Cruse, 1986: 197–213).

Shunday qilib, klassik arab tilshunosligida enantiosemiya hodisasi ko'proq lug'aviy manbalar asosida o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy semantik tadqiqotlarda antonimiya tizimli semantik kategoriya sifatida chuqurroq tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy va deskriptiv metodlardan foydalanildi. Dastlab klassik arab lug'atlarida enantiosemiya sifatida qayd etilgan birliklar o'rganildi. Keyin zamonaviy semantik adabiyotlarda antonimiya haqidagi nazariy qarashlar tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi mezonlar asosida tahlil olib borildi: leksik birliklar soni, qarama-qarshi ma'noning joylashuvi, kontekstga bog'liqlik darajasi, semantik maydondagi funksiyasi, lingvistik tasnif imkoniyati.

Shuningdek, semantik maydon nazariyasi asosida arab tilidagi zid ma'noli birliklarning o'zaro munosabati tahlil qilindi. Bu yondashuv so'zlarni alohida emas, balki ma'no tizimi ichida o'rganishga imkon beradi (Lehrer, 1974: 15–23).

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Klassik arab tilshunoslari duch kelgan ilk lingvistik masalalardan biri so'zlarni turkumlarga ajratish muammosi bo'lib, tadqiqotchilar bu haqida birinchi bo'lib Aliy ibn Abu Tolib (vaf. 661-y.) mulohaza yuritgani, so'zlarni ism, fe'l va harf turkumlariga taqsimlagani borasida yakdil fikr bildiradilar. So'zlarni tasniflash masalasidagi yana bir muhim taqsimot leksik birliklarni shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarga ajratish hamda ularning chegaralarini aniq belgilashdan iborat bo'lib, bu haqdagi dastlabki qaydlar Sibavayhning (vaf. 796-y.) "al-Kitāb" asarida uchraydi: "Bilginki, ular (arablar)ning so'zlari shakli ham, ma'nosi ham har xil (1), masalan: "جَلَسَ" va "دَهَبَ" o'tirdi; shakli har xil, ma'nosi bir xil (2), masalan: "دَهَبَ" va "اُطْلَقَ" ketdi; shakli bir xil, ma'nosi har xil (3), masalan: "وَجِدْتُ عَلَيْهِ" (g'azablandim) va "وَجِدْتُ" (topdim) kabi bo'ladi". Sibavayhning bu tasnifi zamonaviy tilshunoslikdagi alohida leksemalar (1), sinonimiya (2), omonimiya va polisemiya (3) hodisalariga mos tushadi: bir so'z – bir ma'no, bir so'z – bir nechta ma'no, bir nechta so'z – bir ma'no.

Shunday qilib, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra tasnifiga bunday yondashuv (bu Sibavayhning o'z ixtirosimi yoki biror ustozidan naql qilganmi, asarida qayd etmagan) keyingi davr tadqiqotchilarining asosiy tayanchiga aylanadi. Jumladan, Sibavayhning shogirdi Qutrub (vaf. 821-y.) uning farazlarini kengaytiradi: "Arab tilida so'zlar uch turga bo'linadi: birinchi tur eng keng tarqalgan so'zlar guruhi bo'lib, unga shakli ham, ma'nosi ham har xil, masalan, erkak, ayol, kun, tun, turdi, o'tirdi, keldi, ketdi kabi alohida leksik birliklar kiradi. Bunday leksemalar sonini bilish va jamlash imkonsizdir. Ikkinchi tur esa shakli har xil, ma'nosi bir xil so'zlardan iborat bo'lib, masalan, "عَيَّرَ" va "جَمَأَ" eshak, "ذُنِبَ" va "سَيِّدٌ" bo'ri, "سَمَسَمٌ" va "تَعَلَّبَ" tulki, "أَتَى" va "جَاءَ" keldi, "جَلَسَ" va "قَعَدَ" o'tirdi kabi so'zlarning bittasi nutq uchun kifoya qilsa-da, arablar til tuzilmasida bitta shaklda cheklanib qolmay, sinonimiya orqali so'z va

iboralar maydonini boyitishni xohlaganlar. Bu xuddi she'riyatda vazn tuzilmalarini kengaytirish uchun bahrlarni o'zgartirishga o'xshaydi. Uchinchi tur so'zlarning esa shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lib, bunda bitta shakl ikki va undan ortiq ma'noga xizmat qiladi. Masalan, “أُمَّةٌ” so'zi din (1), qad-qomat (2), millat (3), muddat (4), ona (5), yuz tuzilishi (6), qarindosh (7); “عَسَقٌ” zulmat (1), ifloslik (2) kabi ma'nolarni anglatadi. Mana shu turga mansub ayrim so'zlar o'zida ikki qarama-qarshi ma'noni mujassamlashtirgan bo'ladi...” Qutrub uchinchi tur haqida fikr yuritir ekan, Sibavayhning yondashuvini rivojlantirib, tildagi omonimiya, polisemiya va enantiosemiya hodisalarining chegaralariga chiziqlar tortdi. Uning enantiosemik birliklar haqidagi ta'rifi (“ما يكون متضادًا في الشيء وضده”) azdad so'zlar haqidagi kelgusi tadqiqotlarga ko'chib o'tdi. Xususan, tilshunos Abu Bakr Anboriy (vaf. 940-y.) “Kitāb al-'Aḍḍād” asarining muqaddimasida Qutrubning ta'rifini aynan keltirib, unga tushuntirish va e'tirozlarini bildiradi. Shuningdek, u boshqa bir tilshunos Ibn A'robiyning (vaf. 767-y.) arab tilida sinonimiya mavjud emasligi, bitta ma'no faqat bitta so'z orqali ifodalanishi haqidagi farazini qo'shimcha qilib, uni bu borada qo'llab-quvvatlaydi, lekin azdad so'zlar xususida Qutrub bilan hamfikrligini ta'kidlaydi .

Qutrubning enantiosemik birliklar haqidagi ta'rifi biroz noaniq, ushbu til hodisasi haqida to'liq va aniq tasavvur bera olmasa-da, o'z davri uchun mo'jaz, juda muhim qadam bo'lgan edi. Undan keyingi olimlar, jumladan, Abu Hotam Sijistoniyy (vaf. 869-y.) va Ibn Anboriy izlanishlarida ham bu noaniqlik saqlanib qolib, enantiosemiyaning omonimiya va antonimiya bilan munosabati konkretlashtirilmaganini ko'rish mumkin. Faqatgina X asr oxirlariga kelib, tilshunos Abu Tayyib Lug'aviy (vaf. 962-y.) enantiosemik birliklarga antonimiyaning bir ko'rinishi sifatida yondashadi va o'zining “Kitāb al-aḍḍād fī kalām al-'Arab” nomli asarida “azdad so'zi zidning ko'plik shakli bo'lib, biror narsaning ziddi deyilganda uning qarama-qarshisini tushunamiz, masalan, oq va qora, saxiy va baxil, jasur va qo'rqqoq kabi. Har qanday turli xil (ikhtilāf) so'z o'zaro zid bo'lmaydi, masalan, quvvat va jaholat turli leksemalar bo'lsa-da, o'zaro zid emas. Quvvatning ziddi zaiflik, jaholatning ziddi esa ma'rifatdir. Demak, turli

xillik (ikhtilāf) ziddiyat (taḍādd)dan umumiyroq boʻlib, har qanday oʻzaro antonim birliklar alohida leksemalar boʻladi, lekin har qanday alohida leksik birliklar oʻzaro antonim boʻlmasligi mumkin” , deya qayd etadi. Ushbu iqtibosdagi muhim nuqtalardan biri shundaki, Abu Tayyib alohida leksik birliklar va ilk bor ziddiyat (taḍādd) kategoriyasi haqida akademik tadqiqot darajasida soʻz yuritib, shu jihatdan oʻzida ikki qarama-qarshi maʼnoni jamlagan enantiosemik birliklarga bitta leksema deb emas, turli xil soʻzlar sifatida yondashishni taklif qiladi.

Umuman olganda, klassik tilshunoslarning ziddiyat kategoriyasi xususidagi pozitsiyasi turlicha boʻlib, ularning bir guruhi (masalan, Xalil ibn Ahmad, Sibavayh, Abu Amr, Yunus ibn Habib kabilar) arab tilida ushbu hodisaning mavjudligini eʼtirof etib, qoʻllab-quvvatlagan boʻlsa, boshqa bir guruhi (masalan, Ibn Durustavayh) uni inkor etib, eʼtirozlarini keltirib oʻtishgan. Zamonaviy arab tilshunoslari orasida ham qarshi taraf katta ustunlikka ega boʻlib, xususan, tadqiqotchi Abdulfattoh Badaviy oʻzining “Ikki ziddiyat” nomli maqolasida, yana boshqa koʻplab sharqshunoslar ham kichik ilmiy izlanishlarida enantiosemiya hodisasini rad etadilar.

Ushbu qarama-qarshilikning saqlanib qolishidagi asosiy sabablardan biri azdad soʻzlar hodisasini qoʻllab-quvvatlovchi guruhning yetarli darajada oʻz qarashlarini himoya qilmagani boʻlishi mumkin. Shunga qaramay, Ibn Faris (vaf. 1004-y.), Ibn Sida (vaf. 1066-y.) va Ibn Anboriy kabi tilshunoslar izlanishlarida ziddiyat kategoriyasining oʻziga xos namoyon boʻlish shakli hisoblangan enantiosemik birliklar xususida nazariy va amaliy asoslangan fikrlarni uchratish mumkin. Jumladan, Ibn Sida qarshi tomon vakili bilan mantiqiy munozaraga kirishadi: “Sizning nazdingizda ikkita shaklan bir xil soʻzlar ikkita turli maʼnoni anglatib kelishi mumkinmi? Shubhasiz, buni rad etishingiz yoki bunga qoʻshilingiz mumkin. Agar rad etsangiz, mavjudligi aniq, olimlar tomonidan umumqabul qilingan va isbotlangan hodisani inkor etgan boʻlasiz. Bunday inson matnlarni tushunishda chalgʻib, notoʻgʻri talqin qiladi. Chunki ular sanab tugatib boʻlmaydigan darajada koʻp. Masalan, “وجد” bilmoq, topmoq; gʻazablanmoq maʼnolarida ishlatiladi. “جلس” (oʻtirdi) soʻzi turmoq feʼlining ziddi sifatida

ma'lum, lekin Najd aholisi uni “أتى” kelmoq ma'nosida qo'llaydi. Demak, buni inkor etishning iloji yo'q ekan, u holda bir shaklning ikkita turli ma'noga xizmat qilishi isbotlanadi. Shundan kelib chiqib, bir shaklning ikkita turli ma'nolar anglatishi mumkin bo'lsa, u holda bir leksik birlik o'zida ikkita qarama-qarshi ma'noni ham jamlashi mumkin bo'ladi”. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, enantiosemiya va antonimiya hodisalari tashqi jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning semantik tabiati turlicha.

Enantiosemiya hodisasida bitta leksik birlik qarama-qarshi ma'nolarni ifodalashi mumkin. Masalan, arab tilidagi الظن so'zi ayrim kontekstlarda “ishonch”, boshqa kontekstlarda esa “gumon” ma'nosini bildiradi. Shuningdek, الجؤن so'zi ayrim lug'atlarda “qora”, boshqa manbalarda esa “oq” ma'nosida qayd etilgan.

Antonimiya esa ikki mustaqil leksik birlik o'rtasidagi qarama-qarshi semantik munosabatni bildiradi. Masalan: مرتفع — منخفض هادئ — صاخب، قديم — حديث، bu juftliklarda har bir birlik ikkinchisiga qarshi semantik qutb sifatida ishlaydi.

Antonimiyaning bir nechta turlari mavjud. Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik mutlaq bo'ladi. Masalan, حاضر — غائب juftligida oraliq holat nazarda tutilmaydi. Gradatsiyali antonimiyada esa ikki qutb orasida oraliq darajalar bo'lishi mumkin. Masalan, سريع — بطيء juftligida tezlikning turli darajalari mavjud. Relatsion antonimiyada esa qarama-qarshilik o'zaro munosabat asosida shakllanadi. Masalan, بائع — مشتري.

Semantik maydon nazariyasiga ko'ra, antonimik birliklar ma'lum semantik maydonning qarama-qarshi qutblarini tashkil etadi. Masalan, makon maydonida فوق — تحت، أمام — خلف kabi juftliklar mavjud. Enantiosemiya esa semantik maydon ichidagi ichki semantik murakkablik sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, enantiosemiya va antonimiya hodisalari bir-biriga yaqin ko'rinsa-da, ularning lingvistik tabiati turlicha. Enantiosemiya bitta leksik birlikning o'zida qarama-qarshi ma'nolarning

mujassamlanishi bilan xarakterlanadi. Antonimiya esa ikki mustaqil leksik birlik o'rtasidagi qarama-qarshi semantik munosabatdir.

Enantiosemiyada kontekst muhim rol o'ynaydi. Antonimik juftliklarda esa qarama-qarshilik ko'pincha lug'aviy darajadayoq aniq ko'rinadi. Shuningdek, enantiosemiya ko'proq tarixiy semantik rivojlanish natijasida yuzaga keladi, antonimiya esa semantik tizimning muntazam struktur elementidir.

Shu sababli arab tilshunosligida **أضداد** hodisasini enantiosemiya, **التضاد** hodisasini esa antonimiya sifatida farqlash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Bu farqlash arab tilidagi leksik birliklarni tahlil qilishda terminologik aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cruse A. Lexical Semantics. Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
2. Croft W., Cruse D. Cognitive Linguistics. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
3. Geeraerts D. Theories of Lexical Semantics. Oxford: Oxford University Press, 2010.
4. Ibn Fāris A. مقاييس اللغة. Qohira: Dār al-Fikr.
5. Ibn Manzur M. لسان العرب. Bayrut: Dār Şādir.
6. Lehrer A. Semantic Fields and Lexical Structure. Amsterdam: North Holland Publishing, 1974.
7. Lyons J. Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
8. Murphy M. Semantic Relations and the Lexicon. Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
9. Palmer F. R. Semantics. Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
10. أبو الطيب اللغوي. الأضداد في اللغة. بيروت: دار الكتب العلمية.

Muallif haqida ma'lumotlar

Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin o'g'li – Oriental universiteti, Tillar-
1 kafedrası dotsenti v.b., mustaqil izlanuvchi. E-mail:
sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com Tel.: +998935342735